



Translation transformations and its types

Gulcharos SOTIBOLDIYEVA¹

Uzbekistan State University of World Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

10 December 2023

Accepted 25 January 2024

Available online

25 February 2024

Keywords:

translation,
translation transformations,
lexical substitutions,
analogical translation,
synonymous translation,
transcription and
transliteration,
conversional
transformation,
complex nature of
transformations.

ABSTRACT

This article is devoted to the issue of interpretation of translation transformations in different ways. Different aspects of language units are analyzed and their specific features are explained. In the process of translation, pieces of text are found that are suitable and equal to pieces of the original text. Finding it begins with understanding the original pieces and ends with creating exactly the right translation pieces. Translation transformations mean the transformations used in the transition from the original units to the corresponding translation units. A conversion is not a full conversion of the original. Under the concept of conversion, it is assumed that additional lexical and grammatical tools are used to change the same places in the original in the translated text. In the process of translation, transformations are used by the translator not as a means of analyzing original units and their lexical alternatives, but when there is no lexical alternative dynamically, or when it is not possible to use a lexical alternative word or combination according to the context. considered as possible translation methods. The article examines the interaction of translation transformations with other modifications. The effect of complex translation transformations in expressing the discursive form of the original text in the translation is also considered.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1-pp19-27>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Teacher, Department of English Translation Theory, Uzbekistan State University of World Languages.
E-mail: gulcharos.muratovna@gmail.com)

Tarjimada transformatsiya va uning turlari

Kalit so'zlar:

tarjima,
tarjima transformatsiyalari,
leksik almashtirishlar,
analogik tarjima,
sinonimik tarjima,
transkripsiya va
transliteratsiya,
konversiv transformatsiya,
transformatsiyalarning
murakkab tabiati.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tarjima transformatsiyalarini turli yo'llar bilan talqin qilish masalasiga bag'ishlangan. Muallif tomonidan til birliklarining har xil jihatlari tahlil qilinadi va ularning o'ziga xos xususiyatlari izohlanadi. Maqolada tarjima transformatsiyalarining boshqa modifikatsiyalar bilan o'zaro munosabati tadqiq qilinadi. Shuningdek, tarjimada asliyat matnining diskursiv shaklini ifodalashda murakkab tarjima transformatsiyalarining ta'siri ko'rib chiqilgan.

Переводческие трансформации и их виды

Ключевые слова:

перевод,
переводческие
трансформации,
лексические замены,
аналогичный перевод,
синонимический перевод,
транскрипция и
транслитерация,
конверсионная
трансформация,
комплексный характер
трансформаций.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу различных способов интерпретации переводческих трансформаций. Анализируются различные аспекты языковых единиц, объясняются их специфические особенности. В процессе перевода находятся текстовые фрагменты, соответствующие исходному тексту. Перевод начинается с понимания оригинальных фрагментов и завершается созданием адекватных переводных фрагментов. Под переводческими трансформациями понимаются изменения, применяемые при переводе от исходных единиц к соответствующим единицам в переводе. Конверсия не означает полное преобразование оригинала, а предполагает использование дополнительных лексических и грамматических средств для передачи смысла оригинала. Переводческие трансформации используются не только как средство анализа оригинала и его лексических альтернатив, но и в случаях отсутствия динамических лексических альтернатив или невозможности использовать альтернативные слова или выражения по контексту. В статье также рассматривается взаимодействие переводческих трансформаций с другими видами модификаций и их влияние на передачу дискурсивной формы исходного текста в переводе.

KIRISH

Tarjimani biz juda katta bilim va ko'p mehnat talab qiladigan ko'p qirrali bir faoliyat deb bilamiz. Tarjimashunos olim I. Zinger: "Tarjimon sinchkov o'quvchi, ajoyib uslubchi, so'z ustasi, psixolog, har tomonlama bilimdon bo'lishi kerak", deydi [17, 164 b.].

Ammo shuni ham e'tibordan qochirmaslik lozimki, bu ishga ixlos bilan yondashishga shaylangan tarjimonlar uchun aniq ishlangan uslubiy yo'riqnoma yohud tarjimada aniqlikka erishish borasida qat'iy bir to'xtamning o'zi yo'q. Tarjimada aniqlik

tarjima asarning asliyatga nechog'li yaqinligida, ya'ni adekvat ekanligida namoyon bo'ladi. Tarjima – bu tillararo transformatsiyalar majmuasidir, chunki bir tildan ikkinchi tilga biror parchani o'g'irganda biz bevosita manba (source language) tilidagi matn mazmunini tarjima tiliga (target language) ko'chiramiz, ya'ni transformatsiya qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shunday qilib, tarjimon turli-tuman o'zgartirishlardan (transformatsiyalar) foydalanadi. Ularning eng muhimlari quyidagilar:

1. So'z tartibini o'zgartirish;

2. Turli leksik almashtirishlar:

A) sinonim so'zlar bilan almashtirish;

B) antonim so'zlar bilan almashtirish;

V) bir so'z turkumini boshqa so'z turkumi bilan almashtirish;

D) qisqartmali so'zlarni to'liq tarjimasini berish yoki aksi, chunki unday qisqartma tarjima tilida yo'q (UK-YUK deb bo'lmaydi yoki BK deb bo'lmaydi chunki bunday qisqartma yo'q shuning uchun UK Birlashgan Qirollik deb o'g'iriladi);

3. Sintaktik o'zgartirishlar (transformatsiyalar):

A) qo'shma gapni sodda gap bilan tarjima qilish;

B) sodda gapni qo'shma gap bilan o'g'irish;

V) bosh gapni ergash gap bilan almashtirish;

G) ergash gapni qo'shma gap bilan berish;

D) teng bog'langan qo'shma gapni ergash gapli qo'shma gap bilan o'g'irish;

E) ergash gapli qo'shma gapni teng bog'langan qo'shma gap orqali o'g'irish.

4. Analogik tarjimada sintaktik o'zgartirishlar (transformatsiyalar):

a) sodda gapni sodda gap orqali o'g'irish;

b) qo'shma gapni qo'shma gap orqali o'g'irish;

5. Antonomik tarjimada sintaktik o'zgartirishlar:

A) manba tildagi kesimni tarjima tilida antonimik shaklda berish (ya'ni bo'lishli shaklni shaklsiz shakl orqali);

6. Sinonimik tarjimada sintaktik o'zgartirishlar

a) manba tilidagi vositani birdan ortiq sinonimlik vositalar orqali berish;

7. Kompensatsiya (o'rnini qoplash);

8. Qo'shishlar (o'rinli qo'shishlar, o'rinsiz qo'shishlar);

9. Tushirib qoldirishlar (kerakli va keraksiz tushirib qoldirishlar);

10. Kalka (uzib qoplash, o'zini ko'chirib o'tish, transkripsiya, transliteratsiya);

11. "Hijja"lab tarjima qilish (буквальный перевод): ("Qizil" burchak, red corner) (agitbrigada, agitbrigade), (shanbalik, , субботник, subbotnik).

Yuqoridagi o'zgartirishlar (transformatsiyalar)ni quyida alohida ko'rib o'tamiz. Bu transformatsiya turi bir tildagi qonuniyatlarga binoan qurilgan gaplarni ikkinchi bir tilga o'g'irish paytida manba tilidagi so'z tartibining o'zgarishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan: I have read her letter

1 2 3 4

Ushbu gapni o'zbekchalashtirganimizda uning mavjud so'z tartibi o'zgaradi, ya'ni tarjima tili qonuniyatlariga ko'ra so'z tartibi tarjimada aks etishi kerak. Masalan: Men uning xatini o'qib bo'ldim.

1 3 4 2

Shunday qilib manba tilda soʻz tartibi SVO boʻlsa, tarjima tilida soʻz tartibi SOV ekanligini koʻrib turibmiz. Bu esa har ikki tilning turli tipologik guruhlariga mansub ekanligini koʻrsatib turibdi.

Mabodo, manba til va tarjima tili bir tipologik guruhga qarashli (qarindosh) til boʻlsa, unda soʻz tartibi oʻzgarmaydi.

Qiyoslang:

I have read her letter

1 2 3 4

Я прочитал ее письмо

1 2 3 4

Demak, bu transformatsiya qarindosh yoki tipologik jihatdan yaqin boʻlgan tillar bilan ish koʻrilganda, amalda qoʻllanilmaydi, aksincha boshqa transformatsiyalar orqali amalga oshiriladi.

2. Turli xil leksik almashtirishlar:

a) sinonim soʻzlar bilan almashtirish

My parents are workers – Mening avlodlarim ishchilar.

I have seen the lass (pari, qiz) – Men bu qizni (parini, nozanin, goʻzal narsani, parivash, goʻzal malikani, suluvni) koʻrganman.

b) antonim soʻzlar bilan almashtirish:

He is young – U qari emas. He is no fool – U aqli.

v) boshqa soʻz turkumlari bilan almashtirish:

He likes books. His hobby is boxing (noun) (gerund)

U kitob oʻqishni yaxshi koʻradi. (harakat nomi)

Uning qiziqqan sohasi -boks (noun)

3. Sintaktik transformatsiyalar:

A) qoʻshma gapni sodda gap bilan tarjima qilish: I came here so that (in order that) I might study. (sub. clause of purpose)

Men bu erga oʻqigan (oʻqish uchun) (oʻqish maqsadida) keldim. (simple extended sentence)

B) sodda gapni qoʻshma gap orqali berish:

I came in order to study here (simple ext. sentence)

Men bu erga oʻqiyman deb keldim. (subordinate clause o purpose)

V) bosh gapni ergash gap bilan almashtirish va aksincha: While I was eating my eggs these two strangers came in. I was eating my eggs when these two strangers came in.

Ikki begona kishi ichkariga kirib kelganda men quymoq yeb oʻtirgandim. Men quymoq yeb oʻtirganimda ikki begona kishi kirib keldi.

G) teng bogʻlangan qoʻshma gapni ergash gapli qoʻshma gap bilan almashtirish. The girl was standing by the machine and the boy was playing in yard. Qiz mashina oldida turgan paytda bola hovlida oʻynayotgan edi.

He was so busy and that kept him at home.

U juda band edi shu sababli uyda ushlanib qoldi.

Analogik tarjima:

4. Sodda gapni sodda gap orqali oʻgʻirish:

The man is very fond of hunting. Bu odam juda ham ovga ishqiboz.

5. Qoʻshma gapni qoʻshma gap bilan agʻdarish:

I have not seen him since I met him last

Men uni oxirgi marta uchratgan bo'lsam o'shandan beri ko'rganim yo'q. Hit the iron while it's hot – Temirni qizig'ida bos.

6. Anonomik tarjima

He is old – U yosh emas. He is young – U qari emas. He is no fool – U aqli.

7. Sinonimik tarjima

I came to study here – Men bu yerga o'qigani (o'qish uchun, o'qish maqsadida o'qish maqsadi bilan o'qiyman deb, o'qishni deb) keldim.

2. Kompensatsiya (o'rnini qoplash):

This is where the shoe pinches – Вот, где собака зарыта – Mana gap qayerda (ekan).

Paddle your own canoe – O'z aravangni tort.

I hate movies – Men kinoni o'lguday yomon ko'raman.

3. Qo'shishlar (o'rinli qo'shishlar):

It is the means of Livelihood (S. Maugham) – Ha endi, (nima ham derdingiz) tirikchilikda.

Look, you haven't seen him as yet? – Hoy, menga qara (bu deyman) sen uni ko'rmadingmi?

4. Tushirib qoldirishlar:

He put his hands into his pockets – U qo'llarini cho'ntaklariga soldi.

The city of London is any of oldest one in Great Britain – London Angliyadagi eng qadimgi shaharlaridan biri.

5. Kalka (o'zini ko'chirib olib o'tish):

There was held the briefing of the visit of the president to Europe – Keyin prezidentning Yevropaga qilgan safari bo'yicha tafsilotlar (briefing) berildi – Там состоялся брифинг по визиту президента в Европу.

There was held a ammonth meeting Состоялся большой митинг.

Antifreeze – antifriz Speedo-meter-spidometr Machine – mashina Pilaff (pilou) – plov

Peasant -dehqon – dexkan Collective farm – kolxoz Paranja -paranji – parandji Conference- konferensiya

Izohli tarjima: Bu tarjimani turi tarjima tiliga manba tildagi vositani to'g'ridan-to'g'ri o'girish imkoniyati bo'lmaganda qo'llaniladi, ya'ni izohli tarjima (tushuntirish) beriladi.

NATIJALAR

The Nato general gave a greenlight to the military actions in Afganistan – Nato generali Afg'onistondagi harbiy harakatlarga katta yo'l ochib berdi.

Asl nusxaning til birliklaridan tarjima birliklariga o'tishni o'zgartirish yordamida amalga oshirish jarayoni tarjimonlik (tillararo) transformatsiyasi deyiladi. Transformatsiya so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, bu so'z lotincha so'zdan olingan bo'lib transformatio-o'zgartirish, almashtirish degan ma'noni anglatadi. Tarjima transformatsiyalari mazmun va ifoda rejasiga ega bo'lgan til birliklari bilan amalga oshirilishi tufayli ham shakl, ham dastlabki birliklar ma'nosini o'zgartirib, shakliy-semantik xarakter kasb etadi.

Tarjima transformatsiyalari tarjimada lug'at muvofiqligi bo'lmaganda yoki ushbu kontekst shartlarida qo'llanilmaslik holatlarida, turli matnlarni tarjima qilishda tarjimon ishlatadigan tarjima usullari sifatida ko'rib chiqiladi.

O'zgartirish jarayonida dastlabki birliklar sifatida qaraladigan til birliklari xarakteriga qarab tarjima transformatsiyalarini leksik, grammatik va leksik-grammatik transformatsiyalarga bo'lish mumkin. Ularda o'zgartirish jarayonlari bir vaqtning o'zida asl nusxaning leksik va grammatik birliklarini qamrab oladi, ya'ni leksik birliklardan grammatik birliklarga o'tadi yoki aksincha. Tarjima jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan leksik transformatsiyalarga quyidagilar kiradi: transkripsiya va transliteratsiya (bir alifbo harflarini boshqa alifbo harflari bilan yozish), kalkalash (boshqa tildagi so'zni aynan tarjima qilib yoki unga taqlidan so'z yaratish) va leksik-semantik o'zgarishlar: konkretlashtirish, generalizatsiya va modulyatsiya. Xulosa qilib aytganda, tarjimaning mantiqan barkamolligi, uning fonetik, leksik va grammatik qonun-qoidalar doirasida me'yoriy va madaniy jaranglashi, sog'lom aql-zakovat va chuqur tafakkur zaminida yaratilgan fikrlarning jonli nutq an'analari bilan chambarchas bog'liqligidir. Ba'zan tarjimonlar zaruriy uslubiy samaradorlikni yanada aniqroq yaratib berish maqsadida birliklarning moddiy jihatdan aniq tarjimasi tarkibiga ma'noni oydinlashtiradigan, to'ldiradigan so'zlar qo'shadigan, ayrim komponentlarni boshqa so'zlar bilan almashtiradilar. Bunday qo'shish o'zgartirishlar hosil bo'lgan birikma mikrokontekstida yopishsagina, ifodaning mantiqiy xulosasi to'la saqlangani holda, adekvatlik yuzaga keladi.

MUHOKAMA

Har qanday so'z, ya'ni leksik birlik bu tilning lug'at tizimi bo'lagidir. Bu bilan turli tillarda so'z semantik strukturalarining o'ziga xosligi tushuntiriladi. Turli tillarda so'z mazmunida ko'pincha shu til tashuvchilariga xos bo'lgan dunyoni his qilishi o'z ifodasini topgan bir xildagi hodisa yoki tushunchalarning turlicha belgilari ajralib turadi. Bu esa tarjimada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aslyatda foydalanilgan grammatik shakllarni tarjima tiliga ko'r-ko'rona ko'chirishni emas, balki ular vositasida ifoda etilgan fikrlarni muqobil shakllar yordamida vazifaviy qayta tiklashni taqozo etadi. Tarjima amaliyotiga shu nuqtai

nazardan yondashilgandagina tarjima tilida aslyatdagi grammatik shakllarga mos qurilishli vositalarning yo'qligi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Binobarin, ikki til shakllarining o'xshashligi tarjimada rasmiy xususiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda tarjimonning qilayotgan tarjimasining beo'xshovligiga leksik, grammatik, stilistik va shu kabi muammolar asos bo'ladi. Masalan, grammatik tushirib qoldirish, qo'shish, o'rin almashtirish- bu tarjimonning mahoratidan dalolat beradi. Agar tarjimon o'z kasbining yetuk mutaxassisi, shoir, yozuvchi bo'lsa, tarjima jarayonida hech qanday qiyinchilik unga muammo tug'dirmaydi. Tarjima pragmatikasi muammosi alohida yondashuvni talab qiladigan soha hisoblanadi. Shuning uchun tarjima jarayonida matnning pragmatik xususiyatlarini inobatga olish muhim. Shu bilan birga, matnning mazmuniy-uslubiy bo'yoqdorligini, syujetning ifoda darajasini hisobga olgan holda, leksikaning stilistik jihatdan o'ziga xosligini, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

XULOSA

Pragmatika insonlar va belgilar o'rtasidagi aloqadir. Tarjimada bu tushuncha asl matn o'quvchiga qanday ta'sir qilsa tarjima matni o'quvchiga shunday ta'sir qilish qobiliyatini anglatadi. Ko'plab olimlar o'z asarlarida pragmatika masalasini ko'rib chiqqan. Xususan A. Neubert, Katrina Rays, Barxudarov, Komissarov; o'zbek tarjimashunos olimlaridan G.,.. Rahimovlar shular jumlasidandir. Tarjimon muvaffaqiyatli ishlashi uchun chet tilida ham, ona tilida ham yuqori malakaga, shuningdek, mintaqaviy

geografik kompetensiyaga ega bo'lishi kerak, bu esa tarjimaning yuqori sifatli bo'lishini belgilaydi.

Bugungi kunda respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng tarjimon mutaxassislari tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tarjimonning sermashaqqat mehnati tufayli xalqimiz jahon xalqlari bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlamoqda. Tarjimon mehnati tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'lmoqdalar. Bu bilan o'zbek kitobxonining estetik tuyg'ulari, didlari, tushunchalari kengaymoqda. Tarjimon mehnati tufayli tilimizning lug'at boyligi oshirilmoqda, ona tilimizning badiiy ifoda vositalari kengaytirilmoqda. Shunday ekan tarjimon mutaxassislari tayyorlash va ularning sifatini yanada oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan ekanligi shubhasizdir.

Tarjima mutaxassisligiga o'rgatishda talabalar nafaqat asliyatdagi til birliklarining lug'aviy ma'nolari bilan, balki ularning turli so'z birikmalari bilan turlicha munosabatlarga kirishuvdagi turli lisoniy ekvivalentlari bilan ham ishlashlariga to'g'ri keladi. Qolaversa tarjimaning asosiy lisoniy ob'ektlari bo'lmish tarjima transformatsiyalari haqidagi nazariy bilimlar ham rus tilidagi tadqiqotlarda bayon qilinganligi, yoki o'zbek tilida nashr qilingan ilmiy tadqiqotlarda masalaning ruscha va o'zbekcha tahlili o'rganilganligi bu masalani o'zbek tilida atroflicha bayon qiliga turtki bo'ldi.

Nazariy bilimlarga tayanilgan misollardan ma'lum bo'lyaptiki, asliyat matnidagi kommunikativ maqsad, kommunikativ vaziyat darajasidagi ekvivalentlar tarjimaning badiiy qimmatini, estetik ta'sir kuchini belgilaydigan eng muhim aspektlaridir. Bu o'rinda ko'pincha ingliz tilidan rus tiliga o'girilgan misollardan foydalandik va ruscha tarjimalardagi kommunikativ maqsad va vaziyatga bog'lik ekvivalentlik va ularning o'zbek tilida qayta yaratilishiga oid xulosalarimizni bayon qildik. Shu bilan birgalikda, tarjimaning mantiqan barkamolligi, uning fonetik, leksik va grammatik qonun-qoidalar doirasida me'yoriy va madaniy jaranglashi, sog'lom aql-zakovat va chuqur tafakkur zaminida yaratilgan fikrlarning jonli nutq an'analari bilan chambarchas bog'liqligidadir.

Ba'zan tarjimonlar zaruriy uslubiy samaradorlikni yanada aniqroq yaratib berish maqsadida birliklarning moddiy jihatdan aniq tarjimasi tarkibiga ma'noni oydinlashtiradigan, to'ldiradigan so'zlar qo'shadigan, ayrim komponentlarni boshqa so'zlar bilan almashtiradilar. Bunday qo'shish o'zgartirishlar hosil bo'lgan birikma mikrokontekstida yopishsagina, ifodaning mantiqiy xulosasi to'la saqlangani holda adekvatlik yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev – Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent, "O'zbekiston", 2017y 592-bet
2. P.Abrahams "Chaqmoqli yo'llar" 1966-yil 140-bet.
3. P.Abrahams "Chaqmoqli yo'llar" 1966-yil 146-bet.
4. Q.Musayev. "Tarjima nazariyasi" Toshkent 2005-yil 352 bet.
5. Oxford Dictionary of English, Revised Edition. © Oxford University Press 2005 652 p
6. G. Salomov "Tarjima nazariyasi asoslari" Toshkent "O'qituvchi" 1983-y -218b.
7. G.Salomov. "Tarjima nazariyasiga kirish" – Toshkent, 1978 -280b.
8. G.Salomov. "Til va tarjima" T.1966 – 58b
9. G.Salomov "Adabiy an'ana va badiiy tarjima". T., "Fan" 1980;
10. G.Salomov, "Tarjimon mahorati", T., "Fan".1979

11. S.Sirojiddinov, G.Odilova, Badiiy tarjima asoslari. 2012 -321-bet
12. Sh.Safarov, T.Bushuy "Til va madaniyat" Samarqand 2006 -255 bet
13. "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" ma'ruzalar matni 2018-yil 302 bet.
14. P.A.Turaboyeva Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalarda pragmatikaning lingvistik ahamiyati "O'zbek tili va adabiyoti" Toshkent 1979 N 5 64-65 b
15. Vinay J R Dabrelmet. "Stylistique compares du francaiset de langlais methode at traduction Paris" 1958 37 bet
16. Xalliday M.A.K.»Pattern sof languages»London.1966.29-30-bet
17. I .Zinger "Tarjimon ustasi" – M., 1985. -164b
18. Акукленко В.В "Англо-русский и русско-английский словарь" "ложных друзей переводчика " М. 1969 17 с
19. Бархударов Л. С. Язык и перевод. (Вопросы общей и частной теории перевода) – М.: Международные отношения, 1975, – 324с.
20. Белинский В. «Сочинения Белинского», изд. Солдатекова, М.,1859.
21. Бреус Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский. – М.: УРАО, 2000. – 207с.
22. Иванова И. П. Вид и время в современном английском языке. М., 1961, – 280с.
23. К.А. Пигин. Прагматическая обусловленность использования лексических трансформаций при переводе художественного произведения (на материале перевода произведения г. Роббинса «пират» с английского языка на русский) выпускная валификационная работа. 2017 63с
24. Комиссаров В. Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990, – 80с,188- 189с
25. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода.- М., 1980, – 207с.
26. Комиссаров В.Н. «Слово о переводе», М. 1973-211с.
27. Латышев Л. К. Курс перевода. Эквивалентность перевода и способы её достижения. – М.: Межд. отн., 1981, – 198с.
28. Латышев Л.К. Межъязыковые трансформации как средство достижения переводческой эквивалентности.Семантико-синтаксические проблемы теории языка и перевода. – М., 1986. 107с.
29. Лещенко М.И. Виртуальный и актуальный аспекты предложения. – Минск, 1988, – 189с.
30. Линн Виссон. Синхронный перевод с русского на английский. – М.Р.Валент, 1999. – 335 с.
31. Львовская З.Д. Теоретические проблемы перевода. – М., 1985, – 214с. Микушевич В. «Вопросы теории художественного перевода».
32. Миньяр-Белоручев Р.К. Как стать переводчиком? – М.: Стелла, 1994. – 144с.
33. Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода. – М.: Московский лицей, 1996. –190 с.
34. П. К. Миньяр-Белоручев Общая теория перевода и общий перевод М. 1980 ,99 в.
35. Черняховская Л. А. Перевод и смысловая структура. – М. международные отношения, 1976, – 298с.
36. Чужакин А. П., Палажченко П. Мир перевода – 2000. – М.: Валент, 2000, – 184 с.
37. Шведова Н. Ю. Грамматика.Языкознание: Большой энцикл.сл. Под ред. В.Н.Ярцева. – М., 1998. – 315с.
38. Швейцер А.Д. К проблеме лингвистического изучения процесса перевода. Вопросы языкознания.1970. – № 4. – 216с.

- 39. Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика, – М., 1973, – 310с.
- 40. Швейцер А.Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты – М.: Наука, 1988. – 364 с.
- 41. Шевякова В. Е. Современный английский язык. – М.Наука, 1980. – 381с
- 42. Шендельс Е. И. О грамматической полисемии. – ВЯ, 1962, №3, – 258с.